

**TOSHKENT TO‘QIMACHILIK VA YENGIL SANOAT INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/2025.27.12.T.21.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

BUXORO DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI

MUXAMEDJANOVA SARVARA FATXITDINOVNA

**PAXTA TOZALAGICHINING KOLOSNIKLI PANJARASI
KONSTRUKSIYASINI TAKOMILLASHTIRIB TOZALASH
SAMARADORLIGINI OSHIRISH**

05.02.03 – Texnologik mashinalar. Robotlar, mexatronika va robototexnika tizimlari

**TEXNIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2026

**Texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
техническим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)
on technical sciences**

Muxamedjanova Sarvara Fatxitdinovna

Paxta tozalagichining kolosnikli panjarasi konstruksiyasini
takomillashtirib tozalash samaradorligini oshirish..... 3

Мухамеджанова Сарвара Фатхитдиновна

Повышение эффективности очистки за счет совершенствования
конструкции колосниковой решетки хлопкоочистителя..... 27

Muxamedjanova Sarvara Fatxitdinovna

Increasing cleaning efficiency by improving the design of the cotton
cleaning grate..... 53

E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati

Список опубликованных работ

List of published works 57

**TOSHKENT TO‘QIMACHILIK VA YENGIL SANOAT INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/2025.27.12.T.21.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

BUXORO DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI

MUXAMEDJANOVA SARVARA FATXITDINOVNA

**PAXTA TOZALAGICHINING KOLOSNIKLI PANJARASI
KONSTRUKSIYASINI TAKOMILLASHTIRIB TOZALASH
SAMARADORLIGINI OSHIRISH**

05.02.03 – Texnologik mashinalar. Robotlar, mexatronika va robototexnika tizimlari

**TEXNIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2026

Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiyaa komissiyasida B2025.2.PhD/T5664 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus va ingliz (rezyume)) Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat instituti huzuridagi Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.ttesi.uz) va "Zionet" Axborot-ta'lim portalida (www.Zionet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Tuychiyev Timur Ortiqovich

texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD),
dotsent

Rasmiy opponentlar:

Baxadirov G'ayrat Ataxanovich

texnika fanlari doktori, professor

Abdug'affarov Xusniddin Jurabekovich

texnika fanlari doktori, professor

Yetakchi tashkilot:


Tolali ekinlar ilmiy-tadqiqot instituti

Dissertatsiya himoyasi Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat instituti huzuridagi DSc.03/2025.27.12.T.21.01 raqamli Ilmiy kengashning 2026-yil 3-iyun soat 14⁰⁰ dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 100100, Toshkent sh., Shohjahon-5, tel.: (+99871) 253-06-06, 253-08-08, faks: 253-36-17; e-mail: pochta@ttesi.uz, Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat instituti ma'muriy binosi, 2-qavat, 222-xona).


Dissertatsiya ishi bilan Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat institutining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (№ 298- raqam bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100100, Toshkent sh., Shohjahon-5, tel.: (+99871) 253-06-06, 253-08-08.

Dissertatsiya avtoreferati 2026-yil 19-may kuni tarqatildi.
(2026-yil 19-maydagi № 298-raqamli reyestr bayonnomasi).




X.H. Kamilova
Ilmiy darajalar beruvchi
ilmiy kengash raisi, t.f.d., professor

A.Z. Mamatov
Ilmiy darajalar beruvchi
ilmiy kengash ilmiy kotibi, t.f.d., professor


Sh.Sh. Xakimov
Ilmiy darajalar beruvchi
ilmiy kengash qoshidagi
ilmiy seminar raisi, t.f.d., professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonning yetakchi paxta yetishtiruvchi mamlakatlari Xitoy, AQSH, Hindiston, Pokiston va boshqa davlatlarda zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, ilmiy tadqiqotlar hamda raqamli yechimlar imkoniyatlaridan keng miqyosda foydalanish asosida, ilmiy-amaliy yondashuvni qoʻllagan holda paxtani qabul qilish, saqlash va ishlab chiqarishga yetkazib berish, quritish, mayda va yirik iflosliklardan tozalash, jinlash, tolani tozalash hamda qadoqlash bosqichlarida yuzaga kelayotgan mavjud texnologik muammolarni bartaraf etish, yuqori samaradorlikka ega innovatsion texnika va texnologiyalarni joriy etish hamda ulardan oqilona foydalanish masalalariga alohida eʼtibor qaratilmoqda. Hozirgi kunda dunyo boʻyicha paxtani tozalash jarayonida uskunalarning tozalash samaradorligini oshirish, tola hamda chigitning shikastlanish miqdorini kamaytirish modellarini ishlab chiqish asosida texnologik rejimlarini tanlash va paxtani mayda iflosliklardan tozalash uskunasi amaliyotga joriy etishni taqazo etadi. Shu jihatdan jahon paxta-toʻqimachilik sanoatida yuqori samaradorlikka ega boʻlgan paxtani yirik iflosliklardan tozalash uskunalarini takomillashtirish hamda resurstejamkor texnologiyalardan foydalanish muhim ahamiyatga ega hisoblanadi.

Jahonda paxtani dastlabki ishlash jarayonlarining texnik va texnologik asoslarini takomillashtirish, ilgʻor va innovatsion uskunalari hamda texnologik yechimlarni amaliyotga keng joriy etish, ishlab chiqarish quvvatlaridan optimal va samarali foydalanish darajasini oshirish, shuningdek, global paxta-toʻqimachilik bozorida yuqori raqobatbardosh, qoʻshimcha qiymat yaratadigan yarim tayyor va tayyor mahsulotlar ishlab chiqarishga yoʻnaltirilgan kompleks ilmiy-tadqiqot ishlari izchil amalga oshirilmoqda. Ushbu yoʻnalishda, jumladan, paxtani tozalash jarayonida ajralib chiqqan iflosliklar tarkibidagi paxta boʻlakchalari miqdorini kamaytirish va paxtani tozalash texnologiyasini yaxshilash boʻyicha tadqiqotlar ustivor hisoblanmoqda. Bu borada, paxtani yirik iflos aralashmalardan tozalashning samarali texnologiyasi va tozalagichning kolosnikli panjaralarini samarali konstruksiyalarini yaratish, paxtani tozalash jarayonida kolosniklarga zarba taʼsiri va amplitudasi, ishlash rejimlarini optimallashtirishga alohida eʼtibor berilmoqda.

Respublikamizda paxta-toʻqimachilik klasterlari faoliyatini izchil rivojlantirish, paxta tozalash korxonalarini texnik jihatdan qayta jihozlash va kompleks modernizatsiya qilish, xomashyoni dastlabki ishlash jarayonlarining iqtisodiy samaradorligini oshirish, shu bilan birga ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarning ichki va tashqi bozorlardagi raqobatbardoshlik darajasini oshirishga qaratilgan tizimli va keng koʻlamli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda hamda ularning natijasida muayyan ijobiy koʻrsatkichlarga erishilmoqda. 2022-2026-yillarga moʻljallangan yangi Oʻzbekistonning taraqqiyot strategiyasida¹, jumladan, "...Milliy iqtisodiyot barqarorligini taʼminlash va yalpi ichki mahsulotda sanoat ulushini oshirishga qaratilgan sanoat siyosatini davom ettirib, sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmini 1,4 baravarga oshirish maqsad qilinish, bunda toʻqimachilik sanoati

¹ Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi «2022 — 2026 yillarga moʻljallangan Yangi Oʻzbekistonning taraqqiyot strategiyasi toʻgʻrisida»gi PF-60-sonli Farmoni.

mahsulotlari ishlab chiqarish hajmini 2 baravarga ko'paytirish.." bo'yicha muhim vazifalar belgilab berilgan. Ushbu vazifalarini amalga oshirishda, jumladan, paxtani yirik iflos aralashmalardan tozalash uskunalarning kolosnikli panjaralari samarali konstruksiyalarini yaratish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022-2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi, 2021-yil 16-noyabrdagi PF-14-son "Paxta-to'qimachilik klasterlari faoliyatini tartibga solish chora-tadbirlari to'g'risida"gi², 2023-yil 10-yanvardagi PF-2-son "Paxta-to'qimachilik klasterlari faoliyatini qo'llab-quvvatlash, to'qimachilik va tikuv-trikotaj sanoatini tubdan isloh qilish hamda sohaning eksport salohiyatini yanada oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi³ Farmonlari va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 3-martdagi "Paxta-to'qimachilik ishlab chiqarishlarini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 230-sonli Qarori⁴ hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa meyoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya ishidagi tadqiqotlar ma'lum darajada xizmat qiladi.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Paxtani tozalash uskunalari kolosnikli panjaralarini takomillashtirish bo'yicha bir qator chet el olimlari W.S.Anthony, Wang H., X.Zhang, J.D. Wanjura, W.B. Faulkner, M.G. Pelletier, M.N. Gillum, C.B. Armijo va boshqalar ilmiy tadqiqotlar olib borgan.

Paxtani yirik iflos aralashmalardan tozalash texnika va texnologiyasi, asosiy ishchi qismlarning ko'rsatkichlari va ishlash rejimlari takomillashtirish bo'yicha bir qator olimlar, shu jumladan A.YE. Lugachev, A. Djurayev, I.D. Madumarov, P.N. Borodin, M. Agzamov, SH.SH. Xakimov, O.J. Murodov, D.S. Toshpo'latov va boshqalar bu soha rivojiga munosib hissa qo'shdilar.

Lekin, xorijiy va mahalliy paxta tozalash korxonalarida foydalanilayotgan paxtani yirik iflos aralashmalardan tozalash uskunalarning tahlili ularning ishchi qismlari samaradorliklarini oshirish muammosini o'zining optimal yechimini topmaganligini ko'rsatdi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishi ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining II. "Energetika, energiya va resurstejamkorlik" ustuvor yo'nalishi doirasida bajarilgan.

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilayotgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Buxoro davlat texnika universiteti bilan "Buxoro Zarhal Teks" MChJ

² O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 16 noyabrdagi "Paxta-to'qimachilik klasterlari faoliyatini tartibga solish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-14-sonli Farmon.

³ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 10 yanvardagi "Paxta-to'qimachilik klasterlari faoliyatini qo'llab-quvvatlash, to'qimachilik va tikuv-trikotaj sanoatini tubdan isloh qilish hamda sohaning eksport salohiyatini yanada oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-2-sonli Farmon.

⁴ O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 3-martdagi «Paxta-to'qimachilik ishlab chiqarishlarini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi 230-sonli Qarori.

korxonasi o'rtasida "Paxta tozalagichining kolosnikli panjarasini takomillashtirib tozalash samaradorligini oshirish" mavzusida 415-sonli (2025-2027) xo'jalik shartnomasi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi paxta tozalash korxonalarida mavjud yirik iflosliklardan tozalash uskunasing kolosnikli panjarasi konstruksiyasini takomillashtirish asosida tozalash samaradorligini oshirishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

Mahalliy va xorijiy paxtani yirik iflosliklardan tozalash texnika va texnologiyalarini tahlil etish;

arrachali baraban tishlaridan ajratib olingan bir chigitli paxta bo'lakchalarini harakat trayektoriyalarini nazariy tadqiq etish;

takomillashtirilgan konstruksiyadagi kolosnikli panjaraning yangi sxemasini tanlash;

tavsiya etilayotgan takomillashtirilgan konstruksiyadagi kolosnikli panjaralari o'rnatilgan tozalash agregatini ishlab chiqish, tajriba sinovlarini o'tkazish va iqtisodiy samaradorlikni hisoblash.

Tadqiqotning obekti paxtani yirik iflos aralashmalar tozalash uskunasi va tozalash texnologiyasi olingan.

Tadqiqotning predmeti sifatida paxtani yirik iflosliklardan tozalash jarayoni.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot jarayonida paxtani regeneratsiyalash, paxtani dastlabki ishlash texnologik bosqichlarida paxta tolasining sifat ko'rsatkichlarini HVI tizimida aniqlash, zarba nazariyasi, tajriba natijalarini matematik statistik qayta ishlash usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

yirik iflosliklardan tozalash uskunasing asosiy arra-chali barabani ostidagi kolosnikli panjaraning takomillashtirilgan konstruksiyasi paxta bo'lakchalarini kolosniklarga borib urilishida ta'sir etuvchi kuchlarini hisoblash asosida ishlab chiqilgan;

tozalash jarayonida iflosliklar bilan qo'shib ketayotgan paxta bo'lakchalari miqdorini kamaytiruvchi yirik iflosliklardan tozalash uskunasing regeneratsiya barabani ostidagi kolosnikli panjarasining konstruksiyasi takomillashtirilgan;

paxta oqimining massa, zichlik, tezlik va bosim parametrlarining kolosnik konstruktiv o'zgaruvchilariga bog'lanishining matematik modelini ishlab chiqish asosida, kolosnik diametri va oraliq masofasining normal bosim kuchiga ta'sir qonuniyatlari aniqlangan;

kolosniklarning turli shakllari va geometrik parametrlarini paxtani tozalash texnologiyasida bosqichma-bosqich qo'llash asosida paxta oqimida bosim kuchi taqsimotining ratsional qiymatlari va tozalash samaradorligini oshganligi aniqlangan;

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

paxtani yirik iflosliklardan tozalash samaradorligini oshirish imkonini beruvchi takomillashtirilgan tozalagich ishlab chiqilgan;

kolosnikli panjaraning kolosniklarini diametri va ularning oraliq masofalarini ratsional qiymatlari aniqlangan;

takomillashtirilgan kolosnikli panjaraning arrachali baraban bilan oraliq masofasining ratsional qiymatlari aniqlangan.

Tadqiqot natijalarining ishonchligi. Tadqiqot natijalarining ishonchligi iflos aralashmalarga qo'shilgan paxtani regeneratsiyalash uskunalarini nazariy tadqiqotlari natijasining amaliy sinovi, hisobiy ishlarda standartlashtirilgan usul va vositalardan foydalanilganligi, ularning mavjud va amal qilayotgan fundamental nazariyasiga mantiqan mos kelishi, olingan natijalarni real iqtisodiy samara bilan ishlab chiqarish korxonasi joriy qilinganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati tavsiya etilgan paxta oqimining massa, zichlik, tezlik va bosim parametrlarining kolosnik konstruktiv o'zgaruvchilariga bog'lanishining matematik modeli ishlab chiqilishi, kolosniklarning turli shakl va geometrik parametrlarini bosqichma-bosqich qo'llash oqimda bosim kuchi taqsimotini optimallashtirishi nazariy-amaliy asosida paxta tozalagivhi ishchi qismlarining ish tartiblari va ko'rsatkichlarini aniqlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati, paxtani yirik iflosliklardan tozalash agregatining kolosnikli panjaralari turli diametrda va oraliq masofalarda hamda arrachali baraban bilan kolosnikli panjaralarda har xil oraliq masofasi o'rnatilgan konstruksiyasi ishlab chiqilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Paxtani yirik iflosliklardan tozalash uskunasi kolosnikli panjaralarini takomillashtirish bo'yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

tavsiya etilayotgan kolosnikli panjaralari turli diametrda va oraliq masofalarda hamda arrachali baraban bilan kolosnikli panjaralarda har xil oraliq masofasi o'rnatilgan kolosnikli panjaraning takomillashtirilgan konstruksiyasi qo'llanilgan tozalash texnologiyasi Buxoro Zarxal teks MCHJ da tadbiiq etilgan (O'zbekiston respublikasi "O'zto'qimachilik sanoat" uyushmasining 2025-yil 19-avgustdagi 02/25-2021 sonli ma'lumotnomasi). Natijada tozalash samardorligi 5,2 %ga oshib, tola tarkibidagi ifloslik va nuqsonlar miqdorini kamaytirish orqali tolaning sinfini ko'tarilishiga erishildi.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 4 ta xalqaro va 3 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinishi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 14 ta ilmiy ishlar chop etilgan, shulardan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 7 ta jurnalda maqolalar nashr etildi.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, to'rtta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiya hajmi 117 betni tashkil etgan.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi keltirilgan, tadqiqot maqsadi va vazifalari, obykti va predmeti tavsiflangan, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarining

ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy qilish, nashr etilgan ilmiy ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar berilgan.

Dissertatsiyaning **“Adabiyotlar tahlili”** deb nomlangan birinchi bobida paxtani yirik iflos aralashmalardan tozalash texnologiyasi, paxtani yirik iflosliklardan tozalashning mahalliy texnika va texnologiyalarini takomillashtirish bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar tahlili hamda paxtani yirik a iflosliklardan tozalashning xorijiy texnika va texnologiyalari hamda ularni takomillashtirish bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar tahlili keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Kolosnikli panjara konstruksiyaning tozalash jarayoniga ta'sirini nazariy tadqiqoti”** deb nomlangan ikkinchi bobida takomillashtirilgan konstruksiyadagi kolosnikli panjaraning yangi sxemasini tanlash, takomillashgan kolosniklar ta'sirida tozalash samaradorligini nazariy tahlili hamda paxta oqimidan iflosliklarni ajratishda kolosniklar orasidagi yuzalar tahlili keltirilgan.

Arrachali baraban ostidagi kolosnikning diametri 30 mm va ularning oraliq masofasi 55 mm panjara o'rnatilganda – asosiy paxtaning 75-80% umumiy paxta oqimida harakatlanib, tozalash samaradorlikni oshishiga erishishda paxta oqimi doimiy massa va zichlikli muhit sifatida ko'rib chiqamiz.


Kolosniklar diametri $d=30$ mm va oraliq masofalari $L=55$ mm bo'lganda paxta oqimi umumiy yo'nalishda harakatlanadi. Demak oqim yo'nalgan tezlik mavjud.

Paxta oqimini $\vartheta(x, t)$ tezlik bilan harakatlanuvchi oqim sifatida qaraymiz.

Nyutonning ikkinchi qonuniga asosan quyidagi differensial tenglamani hisoblaymiz.

$$m \frac{d\vartheta}{dt} = F \quad (1)$$

(1) ifodada m - paxta oqimining kichik qismi massasi, F - umumiy ta'sir qiluvchi tashqi kuchlar.



1-rasm. Paxta oqimini kolosniklarga ta'sir sxemasi

Paxta bo'lakchalarini kolosniklarga ta'siri natijasida hosil bo'ladigan tashqi kuchlar bo'yicha harakat differensial tenglamasini tuzamiz.

$$m \cdot R^2 \cdot \ddot{\varphi} = mg \sin\varphi(R + l) - F_{is}(R + l) + F_{xk}(R + l)$$

$$mR^2 \ddot{\varphi} = mg(R + l)\sin\varphi - fmg(R + l)\cos\varphi + \frac{1}{2}\rho Cs(R\dot{\varphi})^2(R + l) \quad (2)$$

bu erda, R – arrachali baraban radiusi; l – arrachali baraban tishining uchidan kolosnik sirtigacha bo‘lgan masofa; ρ – paxtaning zichligi; s – arrachali baraban bilan kolosnik orasidagi yuza; C – qarshilik koeffitsienti.

(2) differensial tenglamada $N = m \cdot R \cdot \ddot{\varphi}^2 + m \cdot g \cdot \cos\varphi$ - normal bosim kuchi $F_{ish} = f \cdot mg \cdot \cos\varphi$ -ishqalanish kuchi, $F_{xk} = \frac{1}{2} \cdot \rho Cs(R + l) \cdot (R \cdot \dot{\varphi})^2$ -havoning qarshilik kuchi, bu kuchlarni qiymatlarini (22.2.) ifodaga qo‘yib hisoblaymiz:


$$\ddot{\varphi} = \frac{mg(R+l)}{m \cdot R^2} \sin\varphi - \frac{fmg(R+l)\cos\varphi}{m \cdot R^2} + \frac{\rho \cdot C \cdot s \cdot (R \cdot \dot{\varphi}^2)(R+l)}{2m \cdot R^2} \quad (3)$$

(3) differensial tenglamani sonli yechimda aniqlab kolosnikka paxta bo‘lakchasi ta’siri natijasidagi normal bosim kuchini aniqlaymiz.


Boshlang‘ich shartdan foydalanib paxta bo‘lakchasini o‘zgaruvchan φ burchak bo‘yicha tahlil qilamiz. $\varphi(0) = \varphi_0$ va $\dot{\varphi} = \omega = \frac{\vartheta}{R}$ $\ddot{\varphi} = 0$ shartlardan foydalanib (3) differensial tenglamadan normal bosim kuchini aniqlaymiz

$$N = \frac{\rho \cdot C \cdot s \cdot \vartheta^2}{f \cdot m \cdot \cos\varphi} \quad (4)$$

(4) tenglikdan normal bosim kuchini o‘zgarishini kolosnikka ta’sir qilayotgan paxta bo‘lakchalarini massalari va tezliklari hamda kolosnik diametrlari oraliq masofalarini turli xil qiymatlarida o‘zgarishini grafiklarda tahlillari keltirilgan.



2-rasm. Paxta bo‘lakchasini normal bosim kuchini o‘zgarishi kolosnik orasidagi masofalarni turli xil $L_1 = 45 \text{ mm}$, $L_2 = 50 \text{ mm}$ va $L_3 = 55 \text{ mm}$ qiymatlarida vaqtga bog‘liq grafigi




3-rasm. Paxta bo‘lakchasini normal bosim kuchini o‘zgarishi kolosnik diametrlarini turli xil $d_1 = 20 \text{ mm}$, $d_2 = 25 \text{ mm}$ va $d_3 = 30 \text{ mm}$ qiymatlarida vaqtga bog‘liq grafigi

Yuqoridagi grafiklar tahlilidan paxta bo‘lakchalarini turli xil diametrdagi kolosniklarga ta’siri natijasidagi normal bosim kuchini tahlili keltirilgan. Normal bosim kuchini qiymati kamaysa kontakt kamayadi natijada kolosnik sirtida sirpanib tushish tugaydi buning natijasida iflosliklardan tozalash kamayadi. Grafiklardagi normal bosim kuchini trayektoriyasidan kolosnik diametrini $d_3 = 30 \text{ mm}$ qiymatida va kolosnik orasidagi masofani $L_3 = 55 \text{ mm}$ qiymatida normal bosim kuchi ortishini ko‘rishimiz bu esa tozalash samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Paxta bo‘lakchasini normal bosim kuchi o‘zgarishiga kolosnik orasidagi masofalarni turli xil $L_1 = 30 \text{ mm}$, $L_2 = 35 \text{ mm}$, $L_3 = 40 \text{ mm}$, $L_4 = 45 \text{ mm}$,

$L_5 = 50 \text{ mm}$, va $L_6 = 55 \text{ mm}$ qiymatlarida kolosnikning turli diametrlarini ta'siri 2-rasmda aks ettirilgan.

Paxta oqimidan samarali tozalash uchun takomillashtirilgan konstruksiyali kolosnikni sxemasi ishlab chiqildi (4-rasm). Sxemaga asosan paxta oqimini tozalash zonasida kolosniklar soni, ularni arrali silindr radiusiga nisbatan joylashishini o'rganamiz.



4-rasm. Arrali silindr tishlaridagi paxta bo'lakchasiga tashqi kuchlar tasiridagi harakat sxemasi

Bu yerda $F = kmv$ havoning qarshilik kuchii, k -qarshilik koeffitsiyent, m -paxta bo'lakchasining massasi, v - paxta bo'lakchasining tezligi.

Paxta oqimi arrali silindrda arra tishlari yordamida harakatlanib, kolosnikka kelib urilganga qadar harakatini differensial tenglamasini tuzamiz.

$$m\ddot{x} = P + F \quad (5)$$

bu yerda P -paxta bo'lakchasining og'irlik kuchi, $R = mk\dot{r}$ ga teng.

$$m\ddot{x} = P - mk\dot{x} \quad (6)$$

(6) differensial ifodadan paxta oqim harakatini OX va OY o'qlari bo'yicha ifodalaymiz.

$$m\ddot{x} = mg + mk\dot{x} \quad (7)$$

$$\ddot{x} = g + k\dot{x}$$

(7) differensial tenglamada $\ddot{x} = \frac{d\dot{x}}{dt}$ ga tengligidan

$$\frac{d\dot{x}}{g+k\dot{x}} = dt \quad (8)$$

(8) ifodani bir marta integrallab paxta oqim harakatini OX o'qi bo'yicha tezligini agniqlaymiz.

$$\ln(k\dot{x} + g) = kt + C_1 \quad (9)$$

(9) tenglamadagi C_1 -integral doimiysini boshlang'ich shartdan foydalanib aniqlaymiz. $t = 0$ $\dot{x} = v_0 \cos \alpha$ bundan $C_1 = \ln(kv_0 \cos \alpha + g)$ bu qiymatni (9) tenglikka qo'yamiz

$$\ln \frac{g + k\dot{x}}{g + kv_0 \cos \alpha} = kt$$

bundan

$$\frac{g+k\dot{x}}{g+kv_0 \cos \alpha} = e^{kt} \quad (10)$$

(10) tenglamadan OX o'qi bo'yilab paxta oqim tezligi qo'yidagicha aniqlanadi.

$$\dot{x} = \frac{1}{k} (g + k \cdot v_0 \cos \alpha) e^{kt} - \frac{g}{k} \quad (11)$$

(11) tenglikdan $\dot{x} = \frac{dx}{dk}$ ekanligini inobatga olgan xolda paxta oqimini OX o'qi bo'yicha bosib o'tgan masofasini aniqlashda vaqt bo'yicha integrallab aniqlaymiz.

$$x = \frac{1}{k^2}(g + kv_0 \cos \alpha)e^{kt} - \frac{g}{k}t + c_2 \quad (12)$$


(12) tenglikdagi c_2 -integral doimiysini boshlang'ich shartdan foydalanib aniqlaymiz. $t = 0$ da $x = 0 \rightarrow c_2 = \frac{1}{k^2}(g + kv_0 \cos \alpha)$ ga teng bo'ladi, bu qiymatni (12) tenglikka qo'yamiz.

$$X = \frac{1}{k^2}(g + kv_0 \cos \alpha)(1 - e^{kt}) - \frac{g}{k}t \quad (13)$$


(13) tenglikdan arrachali barabandagi arra tishlarida harakatlanayotgan paxta oqimini kolosniklar bilan o'zaro ta'sirida chegaraviy shart qo'yib ifodalaymiz. $t = \tau$ vaqt $x = L$ masofani bosib o'tadi. Bunda (13) tenglik quyidagicha aniqlanadi.

$$L = \frac{1}{k^2}(g + kv_0 \cos \alpha)(1 - e^{kt}) - \frac{g}{k}t \quad (14)$$

(14) tenglikdan foydalanib arrali silindr tishlarida harakatlanayotgan paxta oqimini kolosniklarga urilib, iflosliklardan tozalanishida bosib o'tgan yo'l trayektoriyasini Maple dasturi orqali grafiklarda tahlil ko'rinishida keltirilgan.



5-rasm. Paxta oqimini kolosnik bilan o'zaro ta'siridagi tezligini turli xil $\vartheta_1 = 6 \text{ m/s}$, $\vartheta_2 = 8 \text{ m/s}$ va $\vartheta_3 = 10 \text{ m/s}$ qiymatlarida vaqtga bog'liq grafigi



6-rasm. Paxta oqimini kolosnik bilan o'zaro ta'sirida kolosniklar bilan arrachali baraban orasidagi masofalarni turli xil $e_1 = 13 \text{ mm}$, $e_2 = 15 \text{ mm}$ va $e_3 = 17 \text{ mm}$ qiymatlarida vaqtga bog'liq grafigi

Paxta oqimini arrali silindrdagi arra tishlari yordamida harakatlanishidan kolosniklarga kelib urulish masofasigacha tahlili keltirilgan. Bunda ishchi kameradagi kolosnikli panjara bilan birinchi o'rnatilgan ajratuvchi kolosnikkacha bo'lgan masofani to'g'ri tanlash hamda shu orqali paxta va iflos aralashmalardan samarali ajralishi ta'minlanib, paxtani iflos aralashmalar bilan chiqindiga ajralish miqdorini keskin kamayish holatlari grafiklarda keltirilgan. Bunda tolalarni arrali silindrdagi arra tishlarini chiziqli tezligi bo'lgan $\vartheta_3 = 10 \text{ m/s}$ kattaligida hamda tolalarni birinchi ajratuvchi kolosniklar bilan ta'sirlashish ta'sirida kolosniklar bilan arrachali baraban orasidagi masofalarni $e_3 = 17 \text{ mm}$ qiymatida birinchi ajratuvchi kolosniklar orasidagi masofasi $l = 55 \text{ mm}$ kattalikda olinishi, paxtani ajratuvchi kolosniklar bilan o'zaro ta'sirining bir tekisligini ta'minlab, iflosliklarni paxta oqimidan ajralishini keskin kamaytiradi. Natijada paxta oqimidan iflosliklarni

ajralishi yaxshilanishi hisobiga oqimdagi paxtadan iflos aralashmalarni ajralishi jadallashib, tozalash samaradorligi yaxshilanadi.

Yuqoridagi differensial tenglamadan foydalanib paxta oqimini OY o'qi bo'yicha harakatini aniqlaymiz.

$$\ddot{y} = k\dot{y}$$

bu ifodani vaqt bo'yicha integrallaymiz $\dot{y} = \frac{d\dot{y}}{dt}$ ekanligidan $\frac{d\dot{y}}{\dot{y}} = k dt$

$$\ln\dot{y} = k \cdot t + c_3 \quad (15)$$

(15) tenglamalardagi c_3 -integral doimiysini boshlang'ich shartdan foydalanib aniqlaymiz. $t = 0$ $\dot{y} = v_0 \sin\alpha$ ga teng bo'ladi

$$\ln\dot{y} = kt + \ln(v_0 \sin\alpha) \quad \text{yoki} \quad \ln \frac{\dot{y}}{v_0 \sin\alpha} = kt$$

bundan

$$\dot{y} = v_0 e^{kt} \cdot \sin\alpha \quad (16)$$

(16) tenglikdan $\dot{y} = \frac{dy}{dt}$ ekanligidan paxta oqimini OY o'qi bo'yicha harakat tenglamasini vaqt bo'yicha integrallab aniqlaymiz.

$$y = \frac{v_0}{k} e^{kt} \sin\alpha + c_4 \quad (17)$$


(17) tenglikdagi c_4 -integral doimiysini boshlang'ich shartdan foydalanib aniqlaymiz. $t = 0$ $y = 0 \Rightarrow c_4 = -\frac{v_0}{k} \sin\alpha$

$$y = \frac{v_0}{k} (1 - e^{-kt}) \sin\alpha \quad (18)$$


(13) va (18) ifodalardan foydalanib paxta oqimini ajratuvchi kolosniklar bilan o'zaro ta'siridagi trayektoriya tenglamasini aniqlashda x ni u ga bog'liqlik ifodasini hosil qilamiz.

$$x = \frac{1}{k} \frac{g + kv_0 \cos\alpha}{v_0} y + \frac{g}{k^2} \ln \left(1 - \frac{k}{v_0 \sin\alpha} y \right) \quad (19)$$

(19) tenglamadan paxtani birinchi ajratuvchi kolosnikgacha bo'lgan oraliq masofalarni to'g'ri tanlashdagi tahlilni Maple dasturi orqali grafiklarda keltirilgan.



7-rasm. Paxta oqimini kolosnik bilan o'zaro ta'siridagi tezligini turli xil $v_1 = 6 \text{ m/s}$, $v_2 = 8 \text{ m/s}$ va $v_3 = 10 \text{ m/s}$ qiymatlarida masofasiga bog'liq grafigi



8-rasm. Paxta oqimini kolosnik bilan o'zaro ta'sirida kolosniklar bilan arrachali baraban orasidagi masofalarni turli xil $e_1 = 13 \text{ mm}$, $e_2 = 15 \text{ mm}$ va $e_3 = 17 \text{ mm}$ qiymatlarida masofasiga bog'liq grafigi


Yuqoridagi grafiklar tahlilidan paxta oqimini kolosniklar bilan o'zaro ta'sirida arrali silindr bilan kolosniklar orasidagi masofa $e_3 = 17 \text{ mm}$ ekanligidan paxta

oqimini bir tekisda uzatish jarayonini amalga oshirishda paxta oqim tezligini $v_3 = 10 \text{ m/s}$ qiymatida va paxta oqimini uzatish burchagini $\alpha = 22^\circ$ qiymatlarida $e_3 = 17 \text{ mm}$ masofadan oshib ketmasligi trayektoriyalarda keltirilgan. Bundan shuni ta'kidlashimiz mumkinki paxta oqimini uzatishdagi jarayonida paxta oqim tezligi hamda uzatish burchaklari muhim ahamiyatga ega ekan.

Arrachali baraban va trapetsiya shaklidagi kolosniklar orasidagi yuzalar o'zgarishi bo'yicha paxta oqimini zichligi, bosimi va tezliklari natijasida paxta oqimidan iflos aralashmalarni samarali ajralish jarayonining tahlili keltirilgan.

Paxta oqim massasini harakatini yetarlicha deb qabul qilamiz, u holda paxta oqimi unumdorligini kolosniklar joylashgan yuzaga o'zgarmas bo'lib, Q ga teng deb qabul qilamiz. Tozalash jarayonida oqimdan ajralib chiqayotgan iflos aralashmalar Q unumdorlikka ta'sir qilmaydi. Paxta bilan o'zaro ta'sirdagi kolosniklar sirti qiya tekislik shakilda deb qabul qilamiz.

Ixtiyoriy takomillashgan kolosnik paxta oqimi bilan o'zaro ta'sirda bo'lib, har bir kolosnik orasidan paxta oqimi o'tishida tezligini, bosimini va zichligini kesim yuzasini mos ravishda v, p va s bilan belgilaymiz.



9-rasm. Paxta oqim tezligi sxemasi

Faraz qilaylik paxta oqimining dastlabki uzatilishini ko'rsatkichlari ρ_0, v_0 va s_0 bo'lan dastlabki kolosnik oldida paxta oqimini qalinligi h_0 bo'lsin, u holda paxta oqimining ish unumdorligi

$$Q_0 = \rho_0 v_0 h_0 L \quad (20)$$

Arrali baraban xamda takomillashtirilgan kolosniklar orasidagi yuzasini trapetsiya shaklida deb qarash mumkin. Hamda paxtani shu yuza orqali oqib o'tishidagi undagi iflosliklarni ajratish jarayonini hisoblaymiz. Arrali baraban bilan kolosniklar orasidagi masofa $l_0 = 15 \text{ mm}$ dan $l = 17 \text{ mm}$ gacha bo'lsa, u holda paxta oqib o'tuvchi yuza uzunligi $h = tg\alpha(l - l_0)$ ekanligidan aniqlaymiz. Paxta oqib o'tuvchi yuzani quyidagicha aniqlaymiz.

$$S = \frac{l+l_0}{2} \cdot h \quad (21)$$

Oqib o'tuvchi oraliqni $h = tg\alpha(l - l_0)$ o'rniga qo'yib xisoblaymiz.

$$S = \frac{l^2-l_0^2}{2} \cdot tg\alpha \quad (22)$$

(22) tenglikdan paxta oqib o'tadigan yuzani kolosnik uchidagi α burchakni qabul qilamiz. Paxta oqimini ta'sir zonasi AB bo'ylab ish zonada oqim parametrlarini aniqlaymiz.

Kolosniklar va arrali baraban orasidagi oqim qatlami uchun o'zgaruvchan yuzaga nisbatan aniqlaymiz.

$$Z = \left(\frac{l_0 \cdot S_0 + (l - l_0)S}{S_0} \right) \cdot h \quad (23)$$

(23) tenglikda l_0 - paxta oqimini dastlabki qalinligi l - paxta oqimini keyingi qalinlik h -kolosnik bilan paxta ta'sirlashuvi oralig'i.

Paxta oqimini arrali silindr va kolosniklar orasidan o'tishdagi harakati uchun Eyler tenglamasini tuzamiz.

$$dS = F \cdot h dx + \rho v s dv \quad (24)$$

(24) tenglikda $F = f \cdot \rho$ paxta oqimini yon tomondan beradigan bosim kuchi $S = z \cdot \frac{l^2 - l_0^2}{2} tg\alpha$ - yuzani hamda yon tomonlariga beradigan $F = f \cdot p$ bosimlarini e'tiborga olib ifodani

$$\rho v = \frac{l^2 - l_0^2}{2} \cdot tg\alpha \cdot z \cdot \frac{dv}{ds} = f \cdot P \cdot h + \frac{d\left(\frac{l^2 - l_0^2}{2} \cdot tg\alpha\right)}{ds} \quad (25)$$

(25) tenglikdan p, v, p nomalumlari uchun qo'shimcha shartlardan foydalanamiz. Masalani yechish uchun paxta oqimi statsionar sharti qo'yidagiga teng deb olamiz.

$$h \cdot \rho \cdot v \cdot z = h \cdot \rho_0 v_0 z_0 = Q \quad (26)$$

(26) tenglikda bosim bilan zichlik orasidagi bog'lanishni olamiz. Sevastyanov A.G. ning tadqiqot ishlariga ko'ra bosimning kichik qiymatlarida chiziqli bog'lanish o'rinli bo'ladi.

$$\rho = \rho_0 [1 + A(P - P_0)] \quad (27)$$

bunda P_0 - paxta oqimining dastlabki bosimi A -amaliy tajribalar natijasida olingan koeffitsiyent. (25) va (27) tenglamalardan foydalanib,

$$P = P_0 + \frac{1}{A} \left(\frac{v_0 z_0}{v z} - 1 \right) \quad (28)$$

(28) ifodani (25) differensial tenglamaga qo'yib, paxta oqimi tezligini o'zgaruvchan oraliqdagi harakatini aniqlaymiz.

Paxta oqimidan $dh = r d\varphi$ elementni tanlaymiz va kolosniklarga ta'siri jarayonidagi paxta bosimi $P(\varphi)$, (Pa) tezligi $v(\varphi)$ va zichligini $\rho(\varphi)$ inobatga olgan holda Eyler tenglamasini tuzamiz.

$$\rho v \cdot \frac{dv}{d\varphi} = -\frac{dp}{d\varphi} + \rho g(\sin\varphi - f \cos\varphi) \quad (29)$$

bu yerda: f - paxta xajmi bilan kolosnik yuzasi orasidagi ishqalanish koeffitsiyenti.

(28) va (29) tenglamalarni hisobga olgan holda quyidagi ko'rinishga keltiramiz.

$$\frac{dv}{d\varphi} = \frac{v_0^2 \rho_0}{A} \left(\frac{g\rho}{v} (\sin\varphi - f \cos\varphi) \right) \cdot \frac{A}{v^2 \rho_0 - A} \quad (30)$$

(31) tenglikdan $x|\varphi| = v^2$ shartlar bo'yicha $x|\varphi|$ yechimlar quyidagi ko'rinishda bo'ladi.

$$x = e^{\frac{2+\mu}{\mu^2-1}} \cdot \left(v^2 e^{\frac{2+\mu^2\varphi}{\mu^2-1}} + \frac{gr\mu^2}{\mu^2-1} \int_{\varphi_0}^{\varphi_1} e^{\frac{2f\mu^2}{\mu^2-1}} d\varphi \right) \quad (31)$$

(31) tenglikda $\mu = \frac{v_0^2 S}{A}$ belgilash kiritilgan paxta oqimini arra tishi ta'siridagi jarayonida yuzadan oqib o'tishdagi paxta zichligini aniqlash muxim hisoblanadi. Arrali silindrdagi arra tishlari yordamida paxta arrali silindr bilan kolosniklar orasidan o'tishda zichligi o'zgarib turadi. Ya'ni ta'minlash jarayonidan oldin paxta tabiiy zichlikda bo'lib, ta'minlashda siqishi natijasida zichlik ortadi.

Arra tishlaridagi paxta oqimini kolosniklar bilan o'zaro ta'sirida paxta oqimidan iflos aralashmalarni ajralib chiqishi uni zichligiga bog'liq. Paxta oqimi namunasini S yuza soxasida siqish koeffitsiyenti A qiymat tajriba asosida aniqlanadi. Bu holda taklif etilgan takomillashgan kolosnik asosida paxta oqimidan iflosliklarni ajratishda nazariy tadqiq etish mumkin.

Bu modelga ko'ra tozalash jarayonida tolalar massaning kamayishi oqim zichligi orasidagi bog'lanish orqali aniqlanadi.


$$\frac{dm}{m} = \frac{v^2}{v^2 - v_0^2} \frac{d\rho}{\rho} \quad (32)$$

(32) tenglamani $m = m_0$, $p = p_0$ shartida integrallaymiz

$$\ln m - \ln m_0 = \frac{v^2}{v^2 - v_0^2} (\ln \rho - \ln p_0) \quad \ln \frac{m}{m_0} = \frac{v^2}{v^2 - v_0^2} \cdot \ln \left(\frac{\rho}{p_0} \right)$$

$$m = m_0 \cdot \left(\frac{\rho}{p_0} \right)^{\frac{v^2}{v^2 - v_0^2}} \quad (33)$$

(33) tenglikdan paxta oqimi massasining kolosnikka ta'sir natijasida iflosliklarni ajralishini kolosniklar orasidagi masofalarga va kolosnik diametrlariga bog'liq holda paxta oqim zichligiga va kolosniklarga ta'siridan keyingi zichliklariga bog'liqligini keltirilgan. Bu ifodani Maple dasturidan foydalanib, paxta oqimidan iflosliklar ajralishida uning massasi o'zgarishi bo'yicha grafiklarda tahlillari keltirilgan.



10-rasm. Paxta oqimidan iflosliklarni ajratishdagi massasining o'zgarishining arrali silindr bilan kolosnik oraliq masofasini turli xil $e_1 = 13 \text{ mm}$, $e_2 = 15 \text{ mm}$ va $e_3 = 17 \text{ mm}$ qiymatlarida arrali silindr tezligiga bog'liq grafigi

bu m_0 vaqt birligida zonaga tushayotgan oqimdagi tolalar massasi.


Ushbu

$$e = \frac{m_0 - m}{m} = 1 - \left(\frac{\rho}{p_0} \right)^{\frac{v^2}{v^2 - v_0^2}} \quad (34)$$

nisbatni tozalash samaradorligini aniqlash ifodasini beradi.

Ushbu paragrafda paxta oqimini arrali silindr bilan kolosniklarni oralig'ida harakatlanishida, oraliq masofasi $e_3 = 17 \text{ mm}$ paxta oqimini kolosniklarga ta'siridan iflos aralashmalarni ajralishi hisobiga paxta oqimi bosimini, zichligini va tezligini o'zgarishini ifodalovchi tenglamalarni keltirish kerak va bunga mos ravishda

grafiklarda keltirilgan. Bunda arrachali baraban bilan kolosniklar oraliq masofasini $e_3 = 17 \text{ mm}$ kattaligida oqimdagi paxta oqimini kolosniklar bilan ta'siri hisobiga iflos aralashmalarni jadallashishi yuzaga keladi, tozalash samaradorligi oshadi.



11-rasm. Paxta oqimidan iflosliklarni ajratish samaradorligi koeffitsiyentining arrachali baraban bilan kolosnik oraliq masofasini turli xil $e_1 = 13 \text{ mm}$, $e_2 = 15 \text{ mm}$ va $e_3 = 17 \text{ mm}$ qiymatlarida vaqtga bog'liq grafigi

Yuqoridagi grafiklar tahlilidan paxta oqimidan iflosliklarni ajratishdagi samaradorlik koeffitsiyentini oshishida kolosnik uchidagi burchagini $\alpha = 22^\circ$ qiymatida hamda arrachali baraban bilan kolosnik oraliq masofasini $e_3 = 17 \text{ mm}$ qiymatlarida grafiklarda tozalash samaradorlik koeffitsiyenti oshganligini ko'rishimiz mumkin. Paxtaning 75-80% umumiy paxta oqimida harakatlanib, tozalash samaradorlikni oshishiga erishildi.

Dissertatsiyaning "Paxtani yirik iflosliklardan tozalash uskunasi kolosnikli panjarasini takomillashtirish" deb nomlangan uchunchi bobida tadqiqot o'tkazish metodikasi, kolosnik turlarining tozalash jarayoniga ta'siri, kolosnikli panjara va arrachali baraban oraliq masofasining tozalash jarayoniga ta'siri, takomillashtirilgan kolosnikning tozalash samaradorligiga ta'siri hamda takomillashtirilgan kolosnikli panjaraning regression modelini qurish ishlari olib borildi.

Paxta tozalash korxonalarida mavjud yirik iflosliklardan tozalash uskunasi kolosnikli panjarasi konstruksiyasini takomillashtirish asosida tozalash samaradorligini oshirish maqsadida tadqiqot olib borildi.

Tadqiqot olib borish uchun 3 xil konstruksiyadagi kolosnikli panjaralardan foydalanildi (12-rasm): I-variantda mavjud konstruksiyadagi kolosnikli panjara (diametri 20 mm va ularning oraliq masofasi 40 mm); II - variantda diametri 15 mm va ularning oraliq masofasi 30 mm bo'lgan kolosnikli panjara; III-variantda balandligi 40 mm, eni 20 mm, pastki o'ng qirrasidan 15 mm yuqoridan 22 gradus burchakda ishchi zona va uni yuqori qismi bilan tutashgan joy radiusi 3 mm ni tashkil etgan 3 dona kolosniklar va diametri 15 mm bo'lgan dumaloq shakldagi 4 dona kolosniklardan iborat panjara.

Tadqiqotlarda Sulton seleksiyasining I va IV navlari 2 sinfda, dastlabki namligi 11,6 %, 16,3 % va iflosligi 9,7 %; 15,5 % bo'lgan paxta xomashyosidan foydalanildi. Paxtani 2SB-10 quritish barabanida I navda 8,2 %ga va III navda 8,6 %gacha quritib olindi. Tadqiqotlarda uskunaning ish unumdorligi 7 tonna/soatda o'tkazildi. Quritilgan paxtadan tadqiqotlar o'tkazish uchun namuna olindi. Tadqiqot natijalari 1-jadvalda keltirilgan.



Mavjud kolosnikli panjaraning umumiy ko‘rinishi



Diametri 15 mm bo‘lgan kolosnikli panjaraning umumiy ko‘rinishi



Kolosnikni kattalashtirilgan ko‘rinishi



Turli xil shakldagi kolosniklardan iborat panjaraning umumiy ko‘rinishi

12-rasm. Tadqiqotlarda foydalanilgan kolosnikli panjaralarning umumiy ko‘rinishi



13-rasm. Tadqiqotlarda asosiy arrachali barabanning ostki qismidagi birinchi kolosnikli panjaraning umumiy ko‘rinishi

Kolosnik variantlarini tozalash samaradorliklarini tahlil etadigan bo‘lsak, mavjud kolosnikli panjara o‘rnatilgan I – variantga nisbatan II – variantdagi kolosnikli panjara foydalanilganda 1,54 %ga, III – variantdagi kolosnikli panjara foydalanilganda 5,16 %ga tozalash samaradorlikni yuqori bo‘lishiga erishilmoqda.

Chigitning mexanik shikastlanishini oshishi I va III - variantlarda deyarli bir xil ko‘rsatkichlar qayd etildi.

Demak, balandligi 40 mm, eni 20 mm, pastki o‘ng qirrasidan 15 mm yuqoridan 22 gradus burchakda ishchi zona va uni yuqori qismi bilan tutashgan joy radiusi 3 mm ni tashkil etgan 3 dona kolosniklar va diametri 15 mm bo‘lgan dumaloq shakldagi 4 dona kolosniklardan iborat panjaraning tozalash samaradorliklari oshishi ularda turli xil konstruksiyadagi kolosniklar joylashganligi natijasida paxtaga berilayotgan zarba kuchlari o‘zgarishi hisobiga erishilmoqda. Shuningdek iflosliklar

tarkibiga paxta bo‘lakchalarini tushib ketishini I navda 0,77 %ga va III navda 0,82 % ga kamaytirishga erishilmoqda.

1-jadval

Kolosnik turlarining yirik iflosliklardan tozalash jarayoniga ta’siri

№	Ko‘rsatkichlar	Tadqiqot variantlaridagi kolosniklar					
		I - variant		II - variant		III - variant	
		I nav	III nav	I nav	III nav	I nav	III nav
1.	Paxta namligi, %	8,2	8,6	8,2	8,6	8,2	8,6
2.	Paxta iflosligi, %	9,7	15,5	9,7	15,5	9,7	15,5
3.	Tozalagichdan so‘ng iflosligi, %	5,94	9,16	5,79	8,88	5,44	8,26
4.	Tozalagichdan so‘ng chigitning mexanik shikastlanishi oshishi, %	0,31	0,35	0,28	0,33	0,32	0,35
5.	Tozalash samaradorlik, %	38,76	40,88	40,30	42,74	43,92	46,71
6.	Erkin tolalar miqdori, %	0,51	0,64	0,48	0,58	0,52	0,64
7.	Ifloslik tarkibida paxta bo‘lakchalar miqdori, %	4,12	4,45	3,44	4,07	3,35	3,63

Tadqiqotlarda arrachali baraban va kolosnikli panjara oraliq masofasini 15 mm dan 20 mm gacha o‘zgartirib, tozalash jarayoniga ta’siri tadqiq etildi. Balandligi 40 mm, eni 20 mm, pastki o‘ng qirrasidan 15 mm yuqoridan 22 gradus burchakda ishchi zona va uni yuqori qismi bilan tutashgan joy radiusi 3 mm ni tashkil etgan 3 dona kolosniklarning arrachali baraban bilan oraliq masofasi 15 mm da o‘zgartirishsiz qoldirildi.

2-jadval

Kolosnikli panjara bilan arrachali baraban oraliq masofasini tozalash jarayoniga ta’siri


№	Ko‘rsatkichlar	Arrachali baraban bilan kolosniklar oraliq masofasi, mm											
		15		16		17		18		19		20	
1.	Paxtani dastlabki namligi, %	10,4	12,5	10,4	12,5	10,4	12,5	10,4	12,5	10,4	12,5	10,4	12,5
2.	Paxtani dastlabki iflosligi, %	8,7	10,3	8,7	10,3	8,7	10,3	8,7	10,3	8,7	10,3	8,7	10,3
3.	Tozalashdan so‘ng ifloslik miqdori, %	4,95	5,65	4,95	5,58	4,86	5,51	4,67	5,26	4,70	5,32	4,76	5,40
4.	Tozalash samaradorlik, %	43,05	45,15	43,05	46,01	44,18	46,92	46,31	48,98	45,93	48,36	45,24	47,56
5.	Chigitni mexanik shikastlanishini oshishi, %	0,56	0,73	0,56	0,68	0,51	0,65	0,49	0,62	0,49	0,6	0,47	0,59
6.	Ifloslikdagi paxta bo‘lakchalari miqdori, %	4,09	4,22	4,09	3,76	3,30	3,45	3,11	3,20	2,95	3,08	2,78	2,89

Tadqiqotlarda C-6524 seleksiyasining I va III navlari 2 sinfdagi dastlabki namligi 10,4 %, 12,5 % va iflosligi 8,7 %; 10,3 % bo‘lgan paxta xomashyosidan foydalanildi. Tadqiqotlarda uskunaning ish unumdorligi 7 tonna/soatda o‘tkazildi. Tadqiqot natijalari 2-jadvalda keltirilgan. Paxtaning dastlabki iflosligi 8,7 %ni tashkil etib, arrachali baraban bilan kolosnikli panjaraning oraliq masofasi 15 mm bo‘lganda, chigitning mexanik shikastlanishini oshishi 0,56 %ni, tozalashdan so‘ng ifloslik

miqdori 4,95 %ni, tozalash jarayonida ajralgan ifloslik tarkibidagi paxta bo‘lakchalari miqdori 4,09 %ni va uskunaning tozalash samaradorligi 43,05 %ni tashkil etdi.

Paxtaning dastlabki iflosligi 10,3 %ni tashkil etib, arrachali baraban bilan kolosnikli panjaraning oraliq masofasi 15; 16; 17; 18; 19 va 20 mm bo‘lganda, chigitning mexanik shikastlanishini oshishi 0,73; 0,68; 0,65; 0,62; 0,60; 0,59 %larni, tozalashdan so‘ng ifloslik miqdori 5,65; 5,58; 5,51; 5,26; 5,32; 5,40 %larni, tozalash jarayonida ajralgan ifloslik tarkibidagi paxta bo‘lakchalari miqdori 4,22; 3,76; 3,45; 3,20; 3,08; 2,89 %larni va uskunaning tozalash samaradorligi 45,15; 45,81; 46,92; 46,98; 48,36; 47,56 %larni tashkil etdi.

